



KUTUBXONASHUNOSLIKGA OID TADQIQOTLARDA IJTIMOIIY BILISH USULLARIDAN FOYDALANISH

O'ktam Nosirov

O'zDSMI "Kutubxona-axborot faoliyati"

kafedrasining professori v.b.,

falsafa fanlari nomzodi

ANNOTATSIYA

Maqolada tadqiqot mavzusiga ko'ra jamiyat tabiat taraqqiyoti natijasida kelib chiqqan insonlarning ijtimoiy uyushmasi bo'lib, ijtimoiy faoliyatning natijasi ekanligiga alohida o'rin ajratilgan. Jamiyat ham tabiat kabi obektiv, o'z tuzilish va taraqqiyot qonunlariga ega ijtimoiy organizmdir. Bu jihatlari bilan jamiyat tabiat bilan umumiy birlikka ega bo'lib, ular bir birlariga ta'sir va aks ta'sir qilib, o'zgarib, rivojlanib, o'z boshlaridan tabiiy tarixiy taraqqiyotni kechirib turadi. Kutubxonashunoslik fanida ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishda an'anaviy usullar bilan birgalikda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash yo'llari ham ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy, bilish, ijtimoiy bilish, texnologiya, strategiya, samaradorlik, fan, texnika, taraqqiyot, kommunikativ, model, jarayon, mazmuniy, ramziy, xizmat, ko'rsatish, sifat toifalari.

USING SOCIAL COGNITIVE METHODS IN LIBRARY SCIENCE RESEARCH

O'ktam Nosirov

Acting Professor, Department of Library and Information Activity,

Uzbek State Institute of Arts and Culture,

Candidate of Philosophical Sciences

ABSTRACT

The article emphasizes that society, according to the research topic, is a social association of people arising as a result of the development of nature and is the result of social activity. Society, like nature, is an objective social organism with its own laws of structure and development. In these aspects, society has a common unity with nature, they influence and reflect each other, change, develop, and undergo natural historical development from their own beginnings. In the field of library science, ways of using modern technologies in conjunction with traditional methods in organizing scientific research are also shown.

Keywords: social, knowledge, social knowledge, technology, strategy, efficiency, science, technique, development, communicative, model, process, meaningful, symbolic, service, presentation, quality categories.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДОВ СОЦИАЛЬНОГО ПОЗНАНИЯ В ИССЛЕДОВАНИЯХ ПО БИБЛИОТЕКОВЕДЕНИЮ

О'ктам Носиров

и.о. профессора кафедры

«Библиотечно-информационная деятельность» УзГИК,

кандидат философских наук

АННОТАЦИЯ

В статье особое внимание уделяется тому, что общество, возникшее в результате исторического развития природы и человеческой деятельности, представляет собой

социальное объединение людей и является результатом социальной деятельности. Подчеркивается, что общество, подобно природе, является объективным социальным организмом, обладающим собственной структурой и законами развития. По своим характеристикам общество находится в единстве с природой, взаимодействует с ней, испытывает взаимное влияние и противодействие, изменяется и развивается, проходя естественно-исторический путь развития. В статье также рассматриваются пути применения современных технологий наряду с традиционными методами при организации научных исследований в области библиотекосведения, что способствует повышению эффективности и качества научно-исследовательской деятельности.

Ключевые слова: социальный, познание, социальное познание, технологии, стратегия, эффективность, наука, техника, развитие, коммуникация, модель, процесс, содержательный, символический, обслуживание, качество обслуживания, категории качества.

Inson bilishini uning o'z predmet obekti jihatidan ikkiga bo'lib o'rganish odat bo'lgan. Bu jihatdan uning birinchisi tabiatni bilish bo'lsa, ikkinchisi jamiyatni bilishdir. Tabiatni bilish tufayli bizning tabiatshunoslik bilimlarimiz hosil bo'lsa, jamiyatni bilishimiz tufayli ijtimoiy-gumanitar bilimlarimiz paydo bo'ladi.

Ijtimoiy bilish aslida tabiat va uning qonunlarini bilishdan farqli ravishda, insonning jamiyat va uning qonunlarini bilishidir.

Jamiyat tabiat taraqqiyoti natijasida kelib chiqqan insonlarning ijtimoiy uyushmasi bo'lib, ijtimoiy faoliyatning natijasidir. Jamiyat ham tabiat kabi obektiv, o'z tuzilish va taraqqiyot qonunlariga ega ijtimoiy organizmdir. Bu jihatlari bilan jamiyat tabiat bilan umumiy birlikka ega bo'lib, ular bir birlariga ta'sir va aks ta'sir qilib, o'zgarib, rivojlanib, o'z boshlaridan tabiiytarixiy taraqqiyotni kechirib turadi. Bunday umumiylik insonning tabiat va jamiyatni bilishida o'z ifodasini topgan bo'lib, uning ijtimoiy bilishi ham bilishning umumiy qonuniyatlari asosida amalga oshadi. Lekin, shu bilan birga, jamiyat o'z tabiati va mohiyatiga ko'ra, o'z qonunlarining amal qilishi jihatidan tabiatdan farq qiladigan o'ziga xos tomonlariga ham ega. Jamiyat o'zining mavjud bo'lishi, o'zgarish va rivojlanishi jihatidan alohida ijtimoiy borliqdir. Uning tabiatdan farqi shundaki, tabiat moddiy borliqning bir turi sifatida vaqtda abadiy, makonda cheksiz mavjud bo'lsa, jamiyat moddiy va ma'naviy borliqning birligi sifatida vaqtda boshlanishi bo'lib, u makonda chegaralangan. Jamiyat tabiatdan bir o'rinda juda katta farq qiladi. Tabiatda faqat ongsiz kuchlar bir-birlariga ta'sir va aks ta'sir qilib, tabiatning umumiy qonunlari ana shu kuchlarning o'zaro ta'siri jarayonida amal qiladi. Bunda anglangan, istalgan, maqsad hech kayerda, hech qachon bo'lmaydi. Aksincha, jamiyatda ongli, muayyan maqsad asosida, ma'lum ehtiyoj va manfaatlarga ega, o'ylab, ma'lum reja yoki ehtiros bilan ish ko'radigan, o'z maqsadlari va manfaatlari yo'lida intiladigan kishilar faoliyat ko'rsatadi. Bunda hech narsa anglanmagan, niyatsiz, istalmagan, maqsadsiz qilinmaydi.

Jamiyat ongli insonlar ijtimoiy faoliyatining mahsuli, jamiyatda ongli va irodaga ega bo'lgan kishilar faoliyat ko'rsatadilar, ular tabiatga ijtimoiy kuch sifatida qarama-qarshi turib, o'z mehnat faoliyatlari bilan unga ta'sir qiladilar, natijada, tabiat ne'matlaridan o'zlari uchun moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqaradilar. Bu jarayonda ular tabiatnigina o'zgartirib qolmay, balki o'z insoniy «tabiat» larini ham o'zgartirib boradilar.

Jamiyatda doimo ongli ravishda o'z maqsadlariga intiluvchi, ma'lum irodaga ega bo'lgan, muayyan ehtirosli, o'ziga mos mulohaza sohibi bo'lgan insonlar faoliyat ko'rsatganligi sababli, ularning bu maqsadlari, iroda, ehtiroslari va mulohazalarini bevosita ijtimoiy omillar belgilaydi. Bu ijtimoiy omillar juda xilma xil bo'lib, ular qisman tashqi ijtimoiy hodisalardan va qisman ideal orzulardan: chunonchi kishilarning shuhratparastlik, «haq va huquqqa xizmat qilish», shaxsiy manfaat, shaxsiy nafrat yoki istak va tilaklardan iborat bo'ladi. Bu omillar zamirida esa doimo ularni

harakatga keltirib, paydo qilib turuvchi ma'lum moddiy va ma'naviy kuchlar mavjud bo'ladi. Bu moddiy va ma'naviy kuchlar esa faoliyat ko'rsatuvchi insonlarning miyalarida turlituman maqsadlar, orzular, rag'batlar, xoxish va istaklar, irodalar, ehtiyoj va manfaatlar shakllariga kirgan tarixiy sabablarni tashkil qiladi. Ular kishilar ongida tarixda amal qiladigan jamiyatni harakatlantiruvchi ideal kuchlar sifatida namoyon bo'ladi. Lekin bu ideal kuchlar zamirida doimo kishilarni harakatga keltiruvchi moddiy kuchlar jamiyat moddiy ehtiyojlari, kishilarning, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faoliyatlari yotadi[7.B.-86].

Jamiyatda kishilarning ijtimoiy, iqtisodiy faoliyatlari orqali jamiyatning ijtimoiy qonunlari amal qiladi. Jamiyatdagi bu ijtimoiy qonunlar, aslida kishilar ijtimoiy faoliyatlarining qonunlaridir. Jamiyatni, ya'ni ijtimoiy borliqni va ijtimoiy ongnijamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini bilish insonning ijtimoiy amaliy faoliyati bilan yuzaga kelib, u o'z ijtimoiy mazmunigaega bo'ladi, bu mazmun jamiyatdagi kishilarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy munosabatlaridan kelib chiqadi. Kishilar o'z jismoniy va aqliy mehnat jarayonlarida tabiat bilan, o'zaro bir-birlar bilan jamiyatda ma'lum ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy munosabatlarga kirishadilar, ular bunda o'zaro faoliyatlar almashuvida bo'ladilar. Bu jarayonlarda ularning o'zaro ta'sir va aks ta'sirlarining tarixiy shakllari bo'lgan ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy munosabatlari shakllanib va rivojlanib boradi. Ijtimoiy bilishda ijtimoiy hodisalarni kishilarning ana shu munosabatlarini tahlil qilish bilan izohlash va tushuntirib berish muhim o'rin tutadi.

Chunki ijtimoiy bilishning o'zi kishilarning ijtimoiy-amaliy faoliyatlari bilan bog'liq holda ularning o'zaro ijtimoiy munosabatlarida yuzaga keladi. Ijtimoiy bilishning mohiyati shundaki, u kishilarning jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy faoliyatlarining mavjudlik shakllari bo'lgan munosabatlarining in'ikosidan iboratdir. Jamiyatning butun hayotiy faoliyatini, aslida, faqat ana shu kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni qayta ishlab chiqarish tashkil qiladi. Ijtimoiy bilish bu jamiyatni, undagi ijtimoiy hodisalarning mohiyatini, ularning kelib chiqishini, yashashi va rivojlanish qonunlarini bilishdir. Bu esa ularni ijtimoiy munosabatlar tizimida, ularning mahsuli sifatida olib o'rganishni talab qiladi. Bundagi ijtimoiy hodisalarning haqiqiy kelib chiqishini o'rganishda, ularni nazariy jihatdan tushunishda moddiy munosabatlar belgilovchi rol o'ynaydi. Ayni shu moddiy munosabatlarning belgilovchi roldan kelib chiqib yondashishgina ijtimoiy hayotning hamma hodisalarini kishilarning o'z manfaatlarini yo'lidagi intilishlarini, maqsadlarini, qarashlarini, niyatlarini hamda kurashlarini to'g'ri tushunish mumkin. Jamiyat hayotini, undagi barcha moddiy va ma'naviy, ijtimoiy hodisalarni kishilarning real hayot jarayonlari bilan, jamiyatning aniq ishlab chiqarish usuli bilan boglab, konkret ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari xarakteridan kelib chiqib o'rganish ijtimoiy bilishning asosiy xususiyatini tashkil qiladi. Ijtimoiy bilishning boshqa barcha xususiyatlari uning shu xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Ijtimoiy bilish bunda kishilar ijtimoiy amaliy faoliyatlari bilan, bu faoliyatlar natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar bilan, bu munosabatlar sohibi bo'lgan jamiyatdagi kishilarning bilim darajalari bilan bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy bilish, keng ma'noda jamiyat ijtimoiy borlig'i va ijtimoiy ongining in'ikosidir. U ijtimoiy in'ikos sifatida in'ikosning boshqa hamma ungacha bo'lgan shakllari va bosqichlaridan tubdan farq qiladi. Ijtimoiy bilish jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy munosabatlarning kishilar miyasidagi faol ijtimoiy in'ikoslaridir.

Ijtimoiy bilish bu bir butun jamiyatni, uning tarixiy taraqqiyot qonunlarini, undagi barcha ijtimoiy voqea hodisalarni, xullas, jamiyatning bir butun moddiy va ma'naviy hayotini bilishdir. Ijtimoiy bilish jamiyatning paydo bo'lishi bilan birga paydo bo'lib, jamiyatning rivojlanib, o'zgarib borishi bilan rivojlanib, boyib boradi. U, insonning butun bilish faoliyatining bir tomoni sifatida, har



doim tarixiy jihatdan shartlanganlik xarakteriga ega bo'lib, uning holati jamiyatning muayyan davridagi konkret ma'lum bosqichi bilan bog'langan va cheklangan bo'ladi.

Ijtimoiy bilish bu insonning ijtimoiy va ma'naviy borliqni ma'lum maqsad asosida o'zlashtirishidir. U tabiatni bilish jarayonidan farqli ularok, faqat jamiyatdagi moddiy ijtimoiy faoliyatlar va munosabatlarni hamda ularning qonuniyatlarini bilishdangina iborat bo'lmasdan, balki jamiyatdagi ma'naviy, mafkuraviy faoliyatlar va munosabatlarni, ularning qonuniyatlarini bilishni ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy bilish, shu bilan birga, insonning o'zini ham, uning tabiat va jamiyatdagi o'rnini, insoning takdiri, uning hayotining ma'nosini va mazmunini bilishdan ham iboratdir.

Ijtimoiy bilish ijtimoiy hodisalarni jonli mushohada qilishdan boshlanadi va abstrakt tafakkur tomon rivojlanib boradi. Shu sababli ijtimoiy bilish jarayoni hissiy va aqliy bilishning birligidan iborat bo'ladi. Ammo bundagi hissiylik «sof» hissiy obrazlar ko'rinishida bo'lmay, ular tafakkurda kayta ishlanib, aqliy obrazlarda umumlashtirilgan bo'ladi.

Ijtimoiy bilishning har bir yangi bosqichi oldingi avlodlarning amaliy tajribalari va nazariy bilimlariga tayangan holda ular asosida yuzaga keladi. Ijtimoiy bilishni yuzaga keltiradigan omillardan biri bu ijtimoiy ehtiyojlar va manfaatlardir. Har qanday ijtimoiy bilish jamiyat ijtimoiy ehtiyojlari bilan, jamiyatdagi kishilarning moddiy va ma'naviy manfaatlari bilan uzviy bog'liq yuzaga keladi.

Jamiyatning amaliy-ijtimoiy ehtiyojlari, birinchi navbatda, ishlab chiqarish, ayirboshlash va iste'mol ehtiyojlari ijtimoiy bilishni va uning natijasi bo'lgan ijtimoiy bilimlar tizimlaridan iborat ijtimoiy va gumanitar fanlarni rivojlantiradi va olg'a siljitadi.

Umuman ijtimoiy bilish va uning taraqqiyoti inson faoliyati bilan jamiyat ishlab chiqarishining taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy bilish jarayonini, uning tabiatini ijtimoiy bilishning tarkibi va uni tashkil etuvchi elementlarni o'rganmasdan turib to'g'ri tushunib bo'lmaydi. Ijtimoiy bilish tarkibi esa juda ko'p elementlardan tashkil topgan bo'ladi. Bu elementlarning eng muhimlari uning subekti va obekti. Ijtimoiy bilish jarayoni ayni shu subekt va obektning o'zaro ta'siri va munosabatlari asosida yuzaga keladi.

Ijtimoiy bilishning subekti, keng ma'noda, inson, ya'ni shaxs, kishilar, insoniyat, ya'ni bir butun jamiyatdir. Tor ma'noda esa, ijtimoiy bilishning subekti ijtimoiy etnik birliklar, ma'lum jamoa va shu kabilardir.

Ijtimoiy bilishning obekti esa keng ma'noda, bir butun jamiyat, insoniyat, uning moddiy va ma'naviy hayoti, uning umumiy taraqqiyot qonunlari va asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridir. Tor ma'noda esa ijtimoiy bilishning obekti jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va ma'naviy munosabatlar, jamiyatda sodir bo'ladigan voqea va hodisalar tashkil qiladi.

Ijtimoiy bilishda jamiyat bir vaqtning o'zida bilishning ham subekti, ham obekti sifatida namoyon bo'ladi. Unda jamiyatning o'z-o'zini bilishi sodir bo'ladi. Ijtimoiy bilishning rivojlanishi avvalo, bilish obekti bo'lgan, jamiyatning rivojlangan darajasiga bog'liq bo'ladi. Chunki ijtimoiy bilish tekshirilayotgan ijtimoiy obektning real jarayonining in'ikosidan iboratdir [6.B.-26].

Lekin shuni aytish kerakki, jamiyatdagi ijtimoiy hodisalar va voqealar o'z-o'zidan ijtimoiy bilishning obekti bo'lavermaydi, aksincha, ularga qachonki subektning bilish faoliyati karatilsagina, qachonki ular kishilarning bilish faoliyati doirasiga kirsagina, shundagina ular ijtimoiy bilishning obektiga aylanadilar. Buni subekt to'g'risida ham aytish mumkin. Shaxs, ijtimoiy guruhlar, etnik birliklar, ijtimoiy katamlar, xullas, jamiyat o'z-o'zicha ijtimoiy bilishning subekti bo'la olmaydi. Buning uchun qachonki ma'lum shaxs, guruh, yoki millat o'z bilishini biror ijtimoiy voqea yoki hodisaga qaratgan paytdagina, u subekt bo'la oladi. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladi, ijtimoiy



bilishning sub'kti va obekti, ular o'rtasidagi aloqadorlik har doim konkret tarixiy shart-sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy bilishda subekt va obekt birlikda bir narsaning ikki tomoni sifatida namoyon bo'ladi. Unda subekt o'z faoliyatini o'zi tug'dirmaydi, balki jamiyat ijtimoiy bilishning obekti sifatida subekt faoliyatini tug'diradi. Bunday obekt sifatidagi jamiyatdagi kishilar guruhi o'z faoliyatlarini o'zlaridan oldin o'tgan avlodlar faoliyatlarining davomi sifatida yaratadilar, o'tmish avlodlar faoliyatlari bu o'rinda keyingi avlodlar faoliyatlari uchun yunaldiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy bilishning subekti garchi bir butun jamiyat, katta yoki kichik ijtimoiy guruhlar va jamoalardan iborat bo'lsa ham bunda odatdagi bilish jarayoni bevosita faqat real faoliyat ko'rsatuvchi ijtimoiy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Lekin bundan, alohida individ ham ijtimoiy bilishning subekti bular ekan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Sababi, individ hamma vaqt faqat ma'lum obektiv va subektiv ijtimoiy shart-sharoitlarda shakllanib borib, oqibatda, ma'lum ijtimoiy shaxs sifatida o'z manfaati bilan bir qatorda, doimo o'zi mansub bo'lgan ijtimoiy guruh yoki ma'lum millat, xalq manfaatlarini ham ifodalaydi. Ijtimoiy bilish jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu uning subekti va obekti dialektikasidir. Ijtimoiy bilishning subekti va obektining o'zaro munosabatlarida ularning har ikalasi ham faoldir: subekt obektga ega bo'lishi bilanok o'z-o'zini yaratadi; obekt esa tarixiy jihatdan ma'lum darajadasubektning konkret faoliyat shaklini oldindan belgilaydi. Shuni aytish kerakki, ijtimoiy bilishning subekti va obekti aloqadorligi; ularning bir-biriga bog'liqligi va o'zaro ta'siri tabiatni bilishga nisbatan ancha murakkabdir. Buning sababi shuki, ijtimoiy bilishning subekti va obekti bo'lgan jamiyatda doimo ma'lum maqsadga ega bo'lgan, muayyan darajada bilimli, ongli kishilar faoliyat ko'rsatadi, ularning faoliyatisiz bunda hech narsa bo'lmaydi.

Jamiyatda sodir bo'lgan har bir ijtimoiy hodisa yoki voqea ma'lum ijtimoiy guruh yoki ijtimoiy jamoaning, ularni tashkil etgan kishilar ongli faoliyatlarining natijalari sifatida maydonga chiqadi. Bunda o'z tarixini yaratuvchi subektning faoliyati bizda hech bir shubha tug'dirmaydi. Lekin obektga kelganda, bir qarashda, u har qanday faollikdan mahrumga o'xshab tuyuladi. Bu narsa faqat yuzaki qarashda shundaydir. Aslida, obekt ham subekt kabi faoldir. Umuman olganda, ijtimoiy bilish jarayonida subekt va obekt bir-biriga «begona» emas, bunda obekt subektga predmet faoliyati sifatida berilgan bo'ladi va ayni vaqtda obekt o'zida subektning nimasinidir ifodalaydi. Subekt ham o'z obektiga karab shakllanadi va o'zida obektning nimasinidir ifodalaydi.

Ijtimoiy bilishda subekt obektni o'z manfaatlarini, maqsadlarini nuktai nazaridan kelib chiqib, o'ziga xos holatda in'ikos ettiradi. Bunda subektning maqsadlari va manfaatlarini, birinchi navbatda, ijtimoiy borliqning moddiy, obektiv shart sharoitlari bilan belgilanadi, shart-sharoitlar ijtimoiy pozitsiyasi bilan mos holda uning oldida nazariy jihatdan kayta hosil qilingan bo'ladi. Bunda hamma narsa shu ijtimoiy bilishni amalga oshiradigan subektga va uning bilishi qaratilgan obektga bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy bilishda bilishning subektini tashkil qilgan ijtimoiy kuchlar, guruhlar o'zlarining subektiv manfaatlaridan kelib chiqib, obektni buzib aks ettirishi ham mumkin. Bunday holat, odatda, obektning mohiyat va qonunlarini to'g'ri in'ikos ettirish buguruhlarining tub manfaatlariga zid keladigan paytlarda ro'y beradi. Bunda biz ijtimoiy bilishda subektivlik bilan obektivlikning bir-biriga zid kelishini ko'ramiz[5.B.-96].

Subektivlik bilan obektivlikning bunday zid kelishi, ba'zan jamiyatda jiddiy xatolarga va buzilishlarga olib kelishi mumkin. Lekin ijtimoiy bilishdagi subektivlik ayrim raxbar shaxslarning tafakkuridagi shaxsiy cheklanganliklar bilan bog'liq ham bo'lishi mumkin. Bunday xollarda subektga xos subektivlik faqat subektning shaxsiy subektiv tomonlaridangina kelib chiqib izohlanmasdan, balki, subekt hayoti va faoliyatining shart-sharoitlaridan ham kelib chiqib izohlanishi lozim. Chunki subekt bu o'rinda obektning aynan o'zi emas, balki uning boshqacha nisbatdagi olinishidir. Ijtimoiy

bilishning subekti va obekti dialektikasi shundayki, bunda ularning o'zaro ta'siri jarayonida obektning o'zgarishi va rivojlanishi subektning ham o'zgarishiva rivojlanishiga olib keladi.

Ijtimoiy bilishda subekt va obekt kategoriyalarining roli shundaki, ular yordamida bizning tafakkurimiz ijtimoiy hodisalarning bir-biriga bog'liq jihatlarini «tutib» oladi va ularni bir-biridan ajratadi. Bu jihatlarining biri faol faoliyat ko'rsatuvchi subekt bo'lsa, ikkinchisi sub'kt tomonidan bilinishi zarur bo'lgan jamiyat, uning moddiy yoki ma'naviy hayotiga oid ijtimoiy hodisa yoki voqeadan iborat obektdir.

Umuman, ijtimoiy bilishning subekti va obekti munosabatlarining dialektikasidan shunarsa ma'lum bo'ladiki, ijtimoiy bilishda ilmiy dunyoqarash va ilmiy metodologiyaning ahamiyati juda kattadir. Bu shu bilan izohlanadiki, birinchidan, ijtimoiy bilishda ularning o'rniga ham tafakkurning abstraktlash, umumlashtirish, konkretlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik usullaridan foydalaniladi. Ikkinchidan, ijtimoiy bilishda ijtimoiy hodisalarni o'rganuvchi subektning o'zi ijtimoiy hodisalar ichida, unga ularning faol ta'sirida ish olib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri. Toshkent: "O'zbekiston", 2022. – 440 b.
2. O'zbekistonda ijtimoiy falsafiy fikrlar tarixidan. Toshkent, 1998.
3. Abdullayev A. Ma'naviyat va iqtisodiy tafakkur. Toshkent: Ma'naviyat, 1999
4. Alimov Q., Alimov R. Tarbirkorlik marketingi. Toshkent: Fan, 2001.
5. Alekseyev P.B., Panin A.B. Teoriya poznaniya i dealektika. M., 1991
6. Barulin B.S. Sotsialnaya filosofiY. Uchyob. dlya vuzov. M., 1999.
7. O'.Nosirov Kutubxonashunoslikka oid tadqiqotlarni tashkil etish metodikasi /o'quv qo'llanma. –Toshkent: MCHJ " Fan va ta'lim poligraf", 2024. -120 b.
8. Kholmuminov, M., & Qolqanatov, A. (2021). The Formation of the First Libraries in Uzbekistan and the Role of Increasing the Cultural and Educational Awareness of the Population. *image*, 4(12), 146-151.
9. Zokirovich, M. K., & Nazarbaevich, A. K. (2022). A Look at the History of Club Establishments and Cultural and Educational Process in Uzbekistan. *JournalNX*, 8(2), 9-15.
10. Nazarbaevich, Q. A. (2025). FORMATION OF THEORY AND PRACTICE OF CREATIVE ENTREPRENEURSHIP IN THE FIELD OF CULTURE AND ART. *SHOKH LIBRARY*, 1(13).
11. Dauletbek, A., & Dilafruz, E. (2025). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL MASTERY IN TEACHING VARIETY PERFORMANCE TO STUDENTS. *SHOKH LIBRARY*.
12. Nazarbaevna, Q. A., & Serjanovich, K. S. (2024). The Importance of Scenario in Cultural Events. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4, 259-262.
13. Yusupalieva, D. K. (2020). Development of mutually beneficial cooperation of Uzbekistan within the SCO. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 5(85), 901-903.
14. Kurbonova, D. A. (2009). Historical and cultural memorials dating back to Temurid period kept in museums of overseas: the dissertation of.
15. Yusupalieva, D. K. (2020). Political role of television in the development of national ideology. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 6(86), 665-667.